

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING AXLOQIY – ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Qodirov Abubakr Rashodjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17522440>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini rivojlantirish metodikasida, shaxsni yahshi tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogning eng asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni ma'naviyati yuksak inson sifatida tarbiyalash Pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi ustuvor faoliyatni anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi.

Аннотация: В данной статье в методике развития нравственно-эстетической компетентности будущих педагогов, хорошее воспитание, обучение и формирование личности считается самой основной функцией педагога. Воспитание личности как человека с высокой духовностью считается основным понятием в педагогике и означает совместную приоритетную деятельность семьи и общества, направленную на формирование гармонично развитой личности. С помощью воспитания предполагается утверждение духовных аспектов личности человека.

Abstract: In this article, in the methodology for developing the moral and aesthetic competence of future teachers, the most important function of a teacher is the proper upbringing, education, and formation of the individual. Raising a person as a person with high spirituality is considered the main concept in pedagogy and means the joint priority activity of the family and society aimed at forming a harmoniously developed personality. With the help of upbringing, the establishment of spiritual aspects of a person's personality is envisaged.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, tuyg'u, tasavvur, shaxs, ma'naviyat, inson, ilm-fan.

Ключевые слова: социально-экономический, духовно-просветительский, чувство, воображение, личность, духовность, человек, наука.

Key words: socio-economic, spiritual-educational, feeling, imagination, personality, spirituality, human, science.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotini tubdan yangilashga qaratilgan islohotlar har tomonlama yuksak axloqiy va estetik qadriyatlarni o'zida mujassam etgan barkamol shaxsni voyaga yetkazish uchun shart-sharoit va barcha imkoniyalar yaratishga qaratilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning zaminida xalqimizni ezgu g'oyalar sari dadil odimlayotganligini teran anglash qiyin emas albatta. Ayniqsa, "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida O'zbekiston taraqqiyotining yangi davriga kirib kelgani, jamiyatda olib borilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi islohotlar eng avvalo, yurtimiz taraqqiyotiga zamin yaratdi. Zamonaviy ta'limni rivojlantirish borasidagi vazifalar, umummilliy maqsadlarga, umumxalq harakatiga aylandi.

2022 – 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy

sohadagi ishlarni amalda qo'llash jihatlari, jumladan, bo'lajak pedagoglarni axloqiy-estetik tafakkurni yangilash va boyitishni yaqqol ko'rsatish mumkun bo'ladi. Zero, insonni taraqqiy ettirish, shaxsni har tomonlama kamol toptirish va jamiyatni rivojlantirish bilan bog'liq masalalar mavjud bo'lgan joyda hissiyot, tuyg'u va tasavvur takomilini taqozo etuvchi axloqiy-estetik tarbiyaga ehtiyoj ortadi.

Yosh avlodni barkamol, komil inson bo'lib voyaga yetishishida pedagog, tarbiyachi va o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. "Mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlarda ulkan maqsadlar belgilangan. Ularni amalga oshirish va taraqqiyotni davom ettirish yosh avlodning bilim va tafakkuriga, tarbiyasiga, vatanparvarligiga bog'liq holda"¹ bo'ladi.

Bo'lajak pedagoglarning axloqiy-estetik kompetentligini rivojlantirish metodikasida, shaxsni yahshi tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogning eng asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni ma'naviyati yuksak inson sifatida tarbiyalash Pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi ustuvor faoliyatni anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlari qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish"² ilg'or horijiy tajribalar asosida ta'lim sifatini oshirish borasida salmoqli ishlarni ro'yobga chiqarish belgilangan. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indi-sini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatleri shakllantiriladi. Shaxs tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo'ladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida "davlat – inson uchun", "inson – jamiyat – davlat" tamoyillari asosida axloqiy-estetik munosabatlarni baxolash, "korxona - oliygoh - ilmiy tashkilot" intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirish tizimini joriy etish asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish hamda Yangi O'zbekiston jamiyatining zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, yoshlarda ijodkorlik, yaratuvchanlik va mehnat sohasida salohiyatni yuksaltirish, axloqiy-estetik faoliyat sohalarini yagona klaster sifatida birlashtirib, tarbiyaviy jarayonlarni maqsadli tashkil etish, sohaviylik ko'lamini kengaytirish hamda san'at, sport, pedagogik ta'lim yo'nalishlarida klasterlar tashkil etish orqali madaniy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mustahkam tayanchi bo'ladigan ma'naviy makonni yaratish ushun asos bo'ladi. "Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir. Ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi sa'y-harakati, shuningdek, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zaxiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish muhum ahamiyatga ega. Intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish, yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini

¹Prezident SH.M.Mirziyoyev pedagoglar bilan muloqoti. <https://president.uz/oz/lists/view/7587>. 30.09.2024

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022йил, 28 январдаги "Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60 сонли Фармони.

rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratishdan iborat³ligini ta’kidlash lozim. Ushbu jarayonda axloqiy-estetik tarbiyani klaster tizimi asosida takomillashtirish, jamiyatni badiiy-estetik qadriyatlarga munosabatini maqsadli yo’naltirish, axloqiy-estetik tuyg’u va tasavvurlarni birlashtirish zarur bo’lgan vazifalarni amalga oshirishning samarali shakl va usullarini amaliyotga tatbiq etish muhim nazariy-metodologik va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim darajasi, unda berilayotgan bilimlar saviyasi va ko’nikmalarni rivojlantirish orqali yangi dunyoqarashni shakllantirish jarayonlarini hisobga olish zarur. “Shu ma’noda, mutafakkir Abdurauf Fitratning “Bu dunyo-kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog’lom jismu tan, o’tkir aql va yaxshi axloqdir”⁴. Bunda yoshlar intellektual salohiyatini ijtimoiy-madaniy jihatlarini “intellektual salohiyat” sifatida “inson faoliyatining intellektual tomonini aks ettiradi, bu esa kasbiy vakolatlariga oid masalalar bilan chambarchas bog’liq”⁵ bo’ladi. Zamonaviy jamiyatlardagi yoshlar intellektual salohiyat samaradorligini quyidagi mezonlar bo’yicha baholash mumkin.

Bo’lajak pedagoglarning axloqiy – estetik komtentligini rivojlantirish jarayoni axloqiy-estetik tarbiyaga doir qarashlar va g’oyalar rivoji uzoq tarixga ega bo’lib, dastlab ko’hna Sharq, so’ngra Qadimgi Yunon, keyinroq O’rta asrlar Sharq mutafakkirlarining ma’naviy merosida nafosat, go’zallik va tarbiya uyg’unligi masalalari estetik tarbiya haqidagi tafakkurni rivojlantirish uchun muhim ilmiy-ma’rifiy manba vazifasini o’tadi.

Yosh avlodni barkamol shahs sifatida tarbiyalashda Sharq mutafakkirlari ilmiy ijodida ham, ahloq-odob masalasi markaziy o’rinni egallagan. Kaykovusning “Qabusnoma”sidan tortib, Abu Nasr Farobiy (Fozil odamlar shahri) asarida axloqiy tarbiya masalasiga oid ma’lumotlar keltirib o’tilgan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilik” (“Baxt keltiruvchi bilim”), Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” (“Haqiqat sovg’alari”), imom Ismoil Buxoriyning “Al-Adab Al-Mufrat” (“Adab durdonalari”) kabi jahonga mashhur asarlarida, Alisher Navoiyning o’lmas shariyatida, Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” ila, “Kamoliddin Xusayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsimiy”, “Ravzati shaholat” (“Shaholat bog’i”) kabi asarlarida ahloq, odob masalalari keng yoritilgan.

Koshifiyning asarlaridagi ta’lim-tarbiya, ahloq masalari ko’pchilik uchun andoza, namuna, odob normasi sifatida qisqa, asosli yozilgan. Koshifiyning fikricha, inson fazilati uning egallagan ta’lim-tarbiyachiga bog’liq deya, e’tirof etadi. “Odob – bu qalbni yomon so’zlardan va nojo’ya xulqdan saqlay olish, o’zini va o’zgalarni ham hurmat qila bilishdadir”, deydi. Uning fikriga yaqin fikrni A.Navoiy ijodida ham ko’rish mumkin. “Mahbub ul-qulub” asarida ilgari surilgan odob-axloq g’oyalari to’g’risida fikr borar ekan, kishilarning ezgu sifatleri – saxiylik, mehribonlik, ilm, rostgo’ylik, mehnatkashlik, kamtarlik, tavoze’ singari qator fazilatlar ulug’lanadi” – deb e’tirof etadi”. Bu bilan u kishilarning insoniylik belgisi uning odobli, ahloqli ekanligi bilan o’lchanadi hamda barcha insonlarni yaxshi xulqli bo’lishiga chaqiradi. Asarning bir qancha boblari odob-axloq va ta’lim-tarbiya masalalariga bag’ishlangan. Navoiy odob-axloq

³Yuldashev Serobjon Urmonaliyevich. TA’LIM SIFATINI OSHIRISH VA YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIIY OMILLAR.

⁴Yuldashev Serobjon Urmonaliyevich. TA’LIM SIFATINI OSHIRISH VA YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOIIY OMILLARI.

⁵O.Ergashova. N.Abdievva. “Bola tarbiyasida milliy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlarning roli”. Yangi O’zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: 2021.

haqida fikr yuritar ekan, yaramas odat va xulq-atvorlarni shafqatsiz qoralaydi, olijanob insoniy fazilatlarni esa yuksak qadrlaydi, bolalarni o'qish, o'rganish va go'zal odobli, a'lo xulqli bo'lishga chaqiradi. Navoiy "Mahbub ul-qulub"da yozadi: "Adab kichik yoshlig'larni ulug'lar duosig'a sazovor etar va ul duo barokati bila umridin barxurdor. Kichiklar mehrin ulug'lar ko'nglig'a solur va ul muhabbat ko'ngulda muabbad qolur. Ushog'larni ko'zg'a ulug' qilur atvoridin xalq ulug'liq bilur"⁶. A.Navoiyning "Mahbubul qulub" asarida odob, ahloqqa oid g'oyalar ilgari surilgan. Uning birdan - bir orzu - umidi, ideali insonga bo'lgan mehr-muhabbat, samimiylik, insoniylik fazilatlari tilga olingan. Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda, milliy va umuinsoniy qadriyatlarning o'rni sifatida, yoshlarda vatanparvarlik, ozodlik, adolatparvarlik, mardlik, do'stlik, tarbiyalilik, axloqiylik, or-nomus, halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi ko'nikmalarni ular tarbiyasida vujudga kelishi bilan bogliqligi ta'kidlanadi.

Axloqiy va Estetik tarbiya uzluksiz tizimli jarayon. Uning ibtidosi oiladan boshlanadi va maktabgacha ta'lim, umumta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'limda mustahkamlanadi. Bu jarayonning mustahkamligi esa tarbiyachi-pedagog, o'qituvchi-murabbiylar bilan bir qatorda davlat xizmatchilarining ham asosiy vazifasidir. Bu vazifalarning to'laqonli ijrosi oilada - ota va onaning, ta'lim muassasasida – pedagogning, davlat xizmatlari sohasida – rahbarning estetik tarbiyadagi shaxsiy namunasi asosida ta'minlanadi. Shunday ekan, jamiyatni isloh etish va modernizatsiyalash jarayonida axloqiy-estetik tarbiyani rivojlantirishning milliy asoslari fan, ta'lim, madaniyat o'rtasidagi mustahkam aloqadorlikka bevosita bog'liq bo'ladi.

Axloqiy-Estetik tarbiya mohiyatan shaxs badiiy tafakkuri va ijodkorlik salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan ma'naviy jarayon hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Prezident SH.M.Mirziyoyev Pedagoglar bilan muloqoti. <https://president.uz/oz/lists/view/7587>. 30.09.2024.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022йил, 28 январдаги "Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60 сонли Фармони.
3. Yuldashev Serobjon Urmonaliyevich. Ta'lim sifatini oshirish va yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishning ijtimoiy omillari.
4. O.Ergashova. N.Abdiyeva. "Bola tarbiyasida milliy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarning roli". Yangi O'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: Nazariya va amaliyot. –Тошкент: 2021.
5. Daliyeva E.Z. «Mahbub ul-qulub» asarida inson tarbiyasiga oid qarashlari. "Экономика и социум" №11(90) A.Navoiy: To'la asarlar to'plami, 9-jild, 2012.www.iupr.ru.

⁶Daliyeva E.Z. «MAHBUB UL-QULUB» ASARIDA INSON TARBIYASIGA OID QARASHLARI. "Экономика и социум" №11(90) A.Navoiy: To'la asarlar to'plami, 9-jild, 2012.www.iupr.ru.